



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

● WWW.XS.UZ ●

E-mail: Info@xs.uz ●

2026-yil 24-fevral, № 37 (9208)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



QISHLOQ XO'JALIGIGA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR KENG JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligini maxsus texnika bilan ta'minlash hamda sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida mexanizatsiya darajasi 81 foizni tashkil etmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda 1 ming 756 ta paxta terish mashinasi xarid qilindi va paxta terimining mexanizatsiya darajasi 52 foizga yetdi. O'tgan mavsumda 2,1 million tonna paxta mashina yordamida yig'ib olingan. Buning hisobiga keyingi besh yilda qo'l mehnati 1,8 barobar qisqardi.

Navbatdagi vazifa – paxtani mashinada terish ulushini kamida 70 foizga yetkazish. Buning uchun 2026-yilda 800 ta paxta terish mashinasi, shuningdek, 6 mingta seyalka, traktor va kombayn xarid qilinishi rejalashtirilgan. Umuman, yil davomida 10 mingta yangi texnikalar xarid qilinib, qishloq xo'jaligi texnikalari parki 292 mingtaga yetkazilishi ko'zda tutilgan.

Yangi texnikalarni fermerlarga qulay shartlarda lizingga berish maqsadida xalqaro moliya institutlaridan 400 million dollar jalb qilinadi. Texnikalar milliy valyutada 2 yillik

imtiyozli davr bilan 10 yilga 18 foiz stavkada berilib, kredit stavkasining 8 foizi byudjet hisobidan qoplab beriladi.

Taqdimotda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish ustuvor vazifa ekani ta'kidlandi.

2026 – 2028-yillarda mahalliy ishlab chiqariladigan texnika va agregatlar hajmini 5 barobarga, mahalliy lashtirish darajasini qo'shimcha 10 foizga oshirish muhim ekani ko'rsatib o'tildi. Xususan, 2026-yilda ishlab chiqarish 6 ming donagacha yetkazilishi, 2028-yilga qadar mahalliy lashtirish ko'rsatkichi o'ziyurar texnikada 30 – 35 foizga, osma va tirkamali texnikada 60 – 65 foizga chiqarilishi rejalashtirilgan.

Texnika va agregatlarni sotib olishda subsidiyalashning amaldagi tizimini mahalliy lashtirish darajasi 25 foizdan yuqori bo'lgan texnikaga tatbiq etilmoqda. Taqdimotda talab yuqori bo'lgan 3 turdagi import texnika

bo'yicha ham subsidiya ajratishni yo'lga qo'yish taklif qilindi. Umuman, joriy yilda texnika qiymatining 15 foizini qoplash uchun 660 milliard so'm subsidiya yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Taqdimotda Toshkent traktor zavodi faoliyatini sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham ko'rib chiqildi.

Sohada zamonaviy bank xizmatlarini yo'lga qo'yish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektga asoslangan yechimlarni joriy qilish borasidagi ishlar ham taqdimot qilindi.

2025-yilda "Agrobank" ATB tomonidan qishloq xo'jaligi texnikasi uchun 1,6 trillion so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkichni 3,9 trillion so'mga yetkazish ko'zda tutilgan. Kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida kredit ajratish muddati 3 kundan 3 soatgacha qisqarishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, mijozlarga kompleks qishloq xo'jaligi xizmatlari ko'rsatiladi. Bunda

har bir hududda bittadan agroxizmat zonalari tashkil etiladi va ularda qishloq xo'jaligi agenti faoliyat yuritadi. Ushbu zonalarda fermerlar bir joyning o'zida bank, konsalting, monitoring, tuproq tahlili, ko'chat yetkazib berish xizmatlari, agronom maslahatidan foydalanishlari, o'quv kurslari haqida ma'lumot olishlari mumkin bo'ladi.

Bankning chorvachilik va mevachilikda, suv sarfini "aqlli" boshqarishda sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha pilot loyihalarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligida startaplarni moliyalashtirish maqsadida ustav kapitali 100 milliard so'mlik yangi venchur kompaniyasini ta'sis etish borasidagi rejalari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, qishloq xo'jaligida mexanizatsiya darajasini yanada oshirish, mahalliy ishlab chiqarish va servisni rivojlantirish, raqamli platformalar orqali monitoring va moliyaviy xizmatlarni yaxshilash yuzasidan mutasaddilarga bir qator ko'rsatmalar berdi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI MASLAHATCHI SUMA CHAKRABARTI BILAN UCHRASHUV O'TKAZDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-fevral kuni iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo'zyicha maslahatchi Suma Chakrabartini qabul qildi.

Maslahatchining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlari muhokama qilindi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, umumta'lim muassasalari salohiyati va investorlar bilan strategik kommunikatsiyani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Iqtisodiy islohotlar, davlat boshqaruvi, ta'lim sohalaridagi ilg'or xalqaro tajriba va strategik rejalashtirish amaliyotini izchil joriy etish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz investitsiya salohiyatini targ'ib qilishni yanada kengaytirish masalasiga to'xtalib o'tildi.

NEFT VA GAZ TARMOG'IGA DOIR TOPSHIRIQLAR IJROSINING BORISHI KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishdi.

Joriy yil 30-yanvar kuni bo'lib o'tgan taqdimotda kompaniya faoliyatida operatsion samaradorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirib, uglevodorod zaxiralarini ko'paytirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan edi.

Bugun davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarning borishi haqidagi axborot bilan tanishdi.

Avvalo, kompaniya faoliyatida xarajatlarni maqbullashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida ma'lumot berildi. Jumladan, markaziy apparatning tashkiliy tuzilmasi qayta ko'rib chiqilib, optimallashtirilmoqda. Ishlab chiqarish xizmatlari, tovar va materiallar narxlari hamda pudrat ishlari bo'yicha narxlarni qayta ko'rib chiqish, kredit portfelini tartibga solish boshlandi. Sohaga oid bo'lmagan aktivlar tasarrufdan chiqarilmoqda.

Shu bilan birga, debitor qarzdorlikni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

Geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish va uglevodorod zaxiralarini ko'paytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tildi. Jumladan, 2026-2027-yillarda qator hududlardagi yangi maydonlarda qidiruv ishlarini kuchaytirish, "3D" seysmik-qidiruv hajmlarini kengaytirish hamda quduqlarni qurilish bilan yakunlash rejalari belgilangani aytiladi. Shuningdek, joriy yil yanvar-fevral oylarida ikkita yangi gaz kondensat koni ochilgani haqida ma'lumot berildi.

Kompaniyani strategik rivojlantirish doirasida forenzik audit o'tkazish, xaridlar jarayonlarini takomillashtirish, "ESG" tamoyillarini joriy etish hamda hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash ishlari tezlashtirildi.

Davlatimiz rahbari belgilangan vazifalar va rejalashtirilgan barcha tadbirlar ijrosini aniq hisob-kitob, qat'iy intizom hamda shaxsiy javobgarlik asosida ta'minlashni davom ettirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O'ZA.

ENERGETIKA TIZIMIDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI MUHOKAMASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yirik energetika loyihalarini amalga oshirish, energiya tizimi barqarorligini ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Tanqidiy tahlil ruhida o'tgan yig'ilishda qayd etilganidek, mamlakatimizda elektr energiyasi bo'yicha jami generatsiya quvvatlari 25,8 ming megavattga yetdi. Shundan quyosh, shamol va gidroenergetika 8 ming megavattni, ya'ni umumiy hajmning 31 foizini tashkil etmoqda. 2026-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 90 milliard kilovatt-soatga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bu 2020-yildagiga nisbatan 40 foiz o'sish demakdir.

Joriy yilda iqtisodiy o'sish hamda tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmlarining oshishi hisobiga elektr iste'moli yana 1 milliard kilovatt-soatga ortishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan aholi va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda energiya resurslarini uzluksiz yetkazib berish, tarmoqlarni yangilash, investitsiyalarni ko'paytirib, yirik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish birinchi navbatdagi vazifa sifatida belgilandi.

Bugungi kun holatiga ko'ra, yoqilg'i-energetika majmuidagi investitsiya portfeli 133 ta loyihani qamrab olgan bo'lib, umumiy qiymati 51,4 milliard dollarni

tashkil etmoqda. Shundan 43 milliard dollarlik 73 ta yirik loyiha bo'yicha tizimli yondashuv qilib, yil yakuniga qadar 6 ming 770 megavatt yangi quvvatlarni ishga tushirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bu – 2,8 ming megavatt quyosh, 2,5 ming megavatt issiqlik, 470 megavatt shamol, 68 megavatt gidroenergetika quvvatlari hamda 884 megavatt energiya saqlash tizimlaridir.

Biroq ayrim loyihalarni kelishish va yer ajratish bilan bog'liq jarayonlarda turli sustkashliklarga yo'l qo'yilayotgani oqibatida mavjud loyihalarni kengaytirish hamda yangilarini boshlash orqaga surilayotgani tanqid qilindi. Mutasaddilarga yer ajratish va toifasini o'zgartirish ishlarini tezlashtirish topshirildi.

Umuman, joylarda energetikani rivojlantirish va energotejamkorlikni ta'minlashda Energetika vazirligi hamda hokimliklar yaqin hamkorlik va muvofiqlashuv asosida ishlashi zarurligi qayd etildi.

Loyihalarni amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va mahsulotlar ishtirokini yanada kengaytirish muhim ekani

ta'kidlandi. 2025-yilda investitsiya loyihalarida mahalliy komponent ulushi 737 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkichni 1 milliard dollardan oshirish maqsad qilingan.

Jumladan, o'tgan yili transformator ishlab chiqarish zavodi ishga tushdi. Joriy yilda yangi turdagi kabel va muftalarni, shamol elektr stansiyalari minoralari va parraklarini mahalliy lashtirish loyihalarini ishga tushirish, energiya saqlash tizimlarini mahalliy lashtirish loyihasini boshlash rejalashtirilgan. Elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmi ortayotgan sharoitda uni iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish masalasi dolzarb ekani, lekin qo'shimcha yuqori kuchlanishli magistral tarmoqlari qurilmasa, generatsiya quvvatlarining iste'mol hajmidan oshib ketishi xavfi mavjudligi ko'rsatib o'tildi. O'tgan yili elektr tarmoqlarini rivojlantirishga ajratilgan mablag'larni o'zlashtirish sur'ati yetarli emasligi qayd etildi.

Shu munosabat bilan yaqin yillarda jami 602 kilometr uzunlikdagi "Tolimarjon – So'g'diyona", "Sirdaryo – Halqa" va

"Qorako'l – Nurobod" liniyalarini, 2030-yilga qadar "Yangi Angren – Namangan" tarmog'i hamda "Namangan" nimstansiyasini qurish rejalari haqida axborot berildi. Toshkent shahrida 75 kilometr yuqori kuchlanishli tarmoqlar va 5 ta nimstansiya qurish, 69 kilometr tarmoq hamda 18 ta nimstansiyaning modernizatsiya qilish, 638 kilometr past kuchlanishli tarmoqlar va 161 ta transformator shoxobchalarini modernizatsiya qilish topshirildi. Qo'shni davlatlar bilan energetika tizimlarini integratsiya qilish hisobiga vodik viloyatlarida elektr ta'minotini yaxshilash rejalari ham muhokama qilindi. "Surxon – Puli-Xumri" yuqori kuchlanishli tarmog'i va uning nimstansiyalari qurilishini jadallashtirish vazifasi qo'yildi.

Energiya samaradorligi borasida hali ko'p ishlar qilinishi shartligi qayd etildi.

Soha va tarmoqlarda 2026-yilda 4 milliard 378 million kilovatt-soat elektr energiyasi, 2 milliard 840 million kubometr tabiiy gaz tejash uchun tizimli va manzilli choralar ko'rish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Yirik korxonalarda ishlab

chiqarish hajmini o'zgartirmasdan energiya sarfini kamida 10 foizga kamaytirish, tarmoqlar va ijtimoiy obyektlarda energiya samaradorligini oshirish uchun 200 million dollar resurs jalb etish choralari belgilandi.


Mutasaddilarga Respublika hududlarida issiqlik va kogeneratsiya markazlarini qurish dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish vazifasi topshirildi. Toshkent shahrining har bir tumanida bittadan kogeneratsiya markazini tashkil etish ishlari davom ettiriladi, Yunusobod tajribasi asosida hududlarda 7 ta kogeneratsiya markazi quriladi. Issiqlik stansiyalari kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida ular uchun suyuqlashtirilgan gazni saqlash infratuzilmasini barpo etish masalasini o'rganib, takliflar kiritish topshirildi.

Yig'ilish yakunida Prezidentimiz strategik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish, magistral va taqsimlovchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha topshiriqlar berdi.

Xushxabar

O'ZBEKISTONLIK OLIMLAR – NASA MUKOFOTI SOVRINDORLARI

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti olimlari – Galaktika astronomiyasi laboratoriyasi mudiri Otabek Burhonov va katta ilmiy xodim Kamoliddin Ergashev NASA tomonidan "Group Achievement Award" mukofoti bilan taqdirlandi. Mukofot "Double Asteroid Redirection Test" (DART) xalqaro kosmik missiyasi doirasida amalga oshirilgan tarixiy ilmiy natija uchun berildi.



"DART" missiyasi – insoniyat tarixida birinchi marta asteroid orbitasini maqsadli ravishda o'zgartirishga qaratilgan sayyoraviy himoya tajribasi. Missiya 2022-yil 26-sentabr kuni kichik asteroid tizimi – "Didymos" asteroidining yo'ldoshi "Dimorphos"ga kinetik zarba berish, ya'ni kosmik kema bilan to'qnashtirish orqali amalga oshirildi. Zarba natijasida yo'ldoshning "Didymos" atrofidagi orbital davri o'zgardi. Eng muhim jihat shundaki, ushbu o'zgarish Yer va kosmik teleskoplar yordamida aniq o'lchandi.

Bu insoniyat tarixida birinchi marta sun'iy ravishda asteroid orbitasini o'zgartirish va uning natijasini eksperimental tarzda tasdiqlash bo'ldi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya

instituti olimlari "DART" missiyasining yerdan kuzatuvlar bo'yicha ishchi guruhi tarkibida "Maydanak" observatoriyasi teleskoplari bilan faol ishtirok etdi. Jamoaning asosiy vazifasi – zarbadan oldingi va keyingi fotometrik kuzatuvlar asosida asteroid tizimining orbital davridagi o'zgarishni aniqlash hamda aniqlik bilan hisoblashdan iborat. Aynan shu o'lchov natijalari "DART" tajribasining muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Ushbu muvaffaqiyat uchun o'zbekistonlik olimlar NASA tomonidan yuksak mukofot bilan taqdirlandi. Bu mukofot xalqaro kosmik agentlikning yuqori e'tirofi belgisi hisoblanadi.

Mazkur ilmiy yutuq nafaqat olimlarimiz, balki mamlakatimiz ilm-fani uchun ham katta sharaftir.

«Xalq so'zi».

SHOVQIN ICHIDAGI DA'VATKOR OVOZ

Yangi O'zbekiston – bu davrimiz shiddatining in'ikosi. Jamiyat, odamlar, butun mamlakat shundoqqina ko'z o'ngimizda yangicha qiyofa kasb etmoqda. Siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, davlat boshqaruvi tizimini qamrab olgan islohotlar shunchalik jadallasib ketdiki, ularning ko'lami va teranligini anglab olish doim ham oson emas. Milliy iqtisodiyotning barqaror dinamikasi, ijtimoiy ko'mak mexanizmlarining takomillashuvi, biznes, ta'lim va fan rivoji uchun yaratilayotgan yangidan-yangi imkoniyatlar – bularning barchasi kundalik hayotimizdagi voqeyeliklar.

Nigoh

Shu asnodda mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'si ham ortib bormoqda. O'zbekistonda biror-bir muhim xalqaro tadbir – u iqtisodiy anjuman bo'ladimi, yuqori darajadagi mintaqaviy uchrashuv yoki global konferensiyami – o'tkazilishi haqida xabar e'lon qilinsa, bunga bugun hyech kim hayron bo'lmaydi. Jonajon O'zbekistonimiz zamonaviy dunyoning eng dolzarb masalalari ko'rib chiqiladigan markazga aylangani davlatimizning ochiqchiligi ramzi, uning taraqqiyot yo'lidani dadil borayotgani tasdig'idir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning puxta o'ylangan,

muvozanatli tashqi siyosati tufayli mamlakatimiz mintaqalar va qit'alarining taqdiri muhokama qilinadigan eng asosiy davralarda hozir bo'lmoqda. O'zbekiston rahbarining o'tgan haftada AQShga amaliy tashrifi hamda Tinchlik kengashining birinchi yig'ilishida ishtirok etishi buning yaqqol tasdig'i. Yetakchimizning kengash yig'ilishida nutq so'zlashi hamda AQSh hukumati, yirik kompaniyalari va moliya institutlarining yuqori darajali vakillari bilan o'tkazgan muloqotlari ahamiyati hamda bu voqyealar jahon ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgani alohida katta mavzu. Urg'ulamoqchi bo'lganimiz – O'zbekistonning dolzarb xalqaro masalalarni hal qilishdagi roli tobora oshib bormoqda va bu turli

rasmiy doiralar vakillari, nufuzli xalqaro tashkilotlar, ekspertlar hamjamiyati va dunyo ommaviy axborot vositalari tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. O'zbekiston yuqori minbarlardan turib o'z pozitsiyasini ifoda qilayotir va muhimi, uning ovozini eshitishmoqda, fikriga qo'shilishmoqda.

Boshqa yo'nalishlar qatori media sohasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keyingi to'qqiz yilda so'z erkinligi asoslari mustahkamlandi, axborot makoni kengaydi, tahririylarning mas'uliyati va mustaqilligi ortdi. Bunday sharoitda, davlatimiz rahbari bir necha bor ta'kidlaganidek, OAV jamiyatda kechayotgan jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lishi, fuqarolarni



o'ylantirayotgan masalalarni ko'tarib chiqishi va konstruktiv muloqotni rivojlantirishga xizmat qilishi dardkor.

Shaffof axborot maskani

Mamlakatimizda va xorijda e'tirof etilganidek, so'nggi yillardagi muhim yutuqlardan biri – jamiyatning yopiqqligini yengib o'tish, davlat organlarining fuqarolar oldida hisobdorligi sari yo'l tutish bo'ldi. Shaffof axborot makoni islohotlar uchun mustahkam tayanchlardan biriga aylandi. Va bu koordinatalar tizimida ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir. Axir aynan ular voqyea-hodisalar va o'zgarishlar dinamikasini aks ettirish, jamiyatda muloqot sifatini, yetukligini ta'minlashga mas'ul.

Anjuman

SAYLOV VA REFERENDUMLARDA
XALQARO KUZATUVNING AHAMIYATI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida MDH Parlamentlararo Assambleyasi tomonidan tashkil etilgan “Saylov va referendum institutiga ishonchni oshirish: xalqaro kuzatuvning oʻrni” mavzuidagi xalqaro konferensiyada qatnashdi.

Tadbirda saylovlar va referendumlarni xalqaro kuzatish faoliyatini takomillashtirish, yoshlarning elektoral madaniyatini shakllantirish, saylov jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, sunʼiy intellekt va uning saylov bosqichlarida qoʻllanilishi, kompleks yondashuv va qonunchilik bilan saylov jarayonini tartibga solish kabi masalalar muhokama qilindi.

Anjuman doirasida senator saylov komissiyalarining mustaqilligi, siyosiy partiyalar uchun teng shart-sharoit yaratilishi,

fuqarolarning saylash va saylanish huquqlarining amaldagi kafolatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, barcha jarayonning ochiqligi va shaffofligi kabi milliy saylov tizimining muhim jihatlari taʼkidlab oʻtdi.

Konferensiyada ishtirokchilar soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda saylov va referendum oʻtkazishning ijobiy amaliyotini alohida urgʻulashdi.

Tadbir doirasida Oʻzbekiston Respublikasida saylov tashkil etish va oʻtkazishga oid qonunlar hamda kitoblar koʻrgazmasi ham boʻlib oʻtdi.

Tadbir

“AGRO-ZAMIN YULDUZLARI”

Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi tizimidagi oliy taʼlim muassasalari talaba qizlari oʻrtasida tashkil etilgan “Agro-Zamin yulduzlari” koʻrik-tanlovining 2026-yilgi universitet bosqichi Toshkent davlat agrar universitetida uyushtirildi.

Mazkur tanlovni oʻtkazishdan asosiy maqsad – jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, bilimli, tashabbuskor va kreativ fikrlaydigan yoshlarni ragʻbatlantirish hamda sohada yetakchi mutaxassis sifatida shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, tanlov global iqlim oʻzgarishi sharoitida qishloq xoʻjaligida qoʻllanilayotgan ilgʻor texnologiyalar boʻyicha bilim va koʻnikmalarni mustahkamlash, talabalarning amaliy va nazariy salohiyatini oshirish hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotda qoʻllashga ham xizmat qiladi.

Tadbirda Oliy Majlis Senati aʼzolari Sayyora

Abdikarimova, Malika Qodirxonova ham ishtirok etib, talaba qizlarning oʻz yoʻnalishlarida bilim va malakalarini koʻzdan kechirdi.

Tanlov doirasida qatnashchilarning bilimlari, amaliy va innovatsion loyihalari, “yashil” iqtisodiyot tamoyillari, suv resurslarini tejash, zamonaviy agrotexnologiyalarini joriy etish va iqlim oʻzgarishi sharoitida samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish boʻyicha takliflari baholandi.

Universitet bosqichida gʻolib topilgan talaba tanlovning respublika darajasida ishtirok etish huquqini qoʻlga kiritdi.

«Xalq soʻzi».

OʻZBEKISTONNING TINCHLIKPARVAR DAVLAT SIFATIDAGI
NUFUZI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Bugungi dunyo siyosati keskin oʻzgarishlar, ziddiyatlar va xavf-xatarlar kuchayib borayotgan murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy raqobatning avj olishi, mintaqaviy mojarolarning chuqurlashuvi, ishonch inqirozi hamda xalqaro huquq normalariga nisbatan turli yondashuvlar global xavfsizlik tizimini jiddiy sinovdan oʻtkazmoqda. Ana shunday sharoitda tinchlikni saqlash, nizolarni siyosiy va diplomatik yoʻllar orqali hal etish masalasi jahon hamjamiyati uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Munosabat

Shu nuqtai nazardan, 21-22-yanvar kunlari Shveysariyaning Davos shahrida oʻtkazilgan Tinchlik kengashi nizomini imzolash marosimi xalqaro kun tartibidagi dolzarb voqeeliklardan biri sifatida namoyon boʻldi. Oʻzbekistonning mazkur kengashga taʼsischi davlat sifatida taklif etilishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi va siyosiy salmogʻi ortib borayotganini yaqqol tasdiqladi.

AQShning Vashington shahriga amaliy tashrif esa ana shu Davosda boshlangan tashabbusning mantiqiy davomi boʻldi. Davlatimiz rahbari Tinchlik kengashining dastlabki yigʻilishida nutq soʻzlab, Gʻazo sektorini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qayta tiklash va mintaqada barqarorlikni taʼminlash boʻyicha oʻz qarashlarini ilgari surdi. Bu tashabbus Oʻzbekistonning xalqaro maydonda faol, masʼuliyatli va tinchlikparvar davlat sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, mamlakatimiz nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi muammolarga befarq emasligini, ularga muloqot va hamkorlik orqali yechim topish tarafdori ekanini amaliy takliflar bilan namoyon etmoqda. Gʻazo sektorini ijtimoiy-iqtisodiy tiklash masalasida bildirilgan pozitsiya Oʻzbekistonning insonparvarlik tamoyillariga sodiqligini, barqarorlik va taraqqiyotni taʼminlashni ustuvor vazifa



sifatida koʻrishini tasdiqlaydi. Bu esa mamlakatimizni xalqaro munosabatlarda ishonchli, konstruktiv va tashabbuskor

sherik sifatida yanada mustahkam pozitsiyaga olib chiqadi.

Tashrifning iqtisodiy jihatida ham alohida ahamiyatga ega. Tashrif doirasida Yurtboshimiz AQSh savdo vaziri, savdo vakili, Eksimbank rahbariyati hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi bosh ijrochi direktori bilan atroflicha va mazmunli uchrashuvlar oʻtkazib, ikki davlat oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan ustuvor masalalarni muhokama qildi. Muloqotlar chogʻida oʻzaro savdo hajmini davlat sifatidagi nufuzini yanada faollashtirish, strategik loyihalarni qoʻshma moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, sanoat, energetika, infratuzilma va yuqori texnologiyalar sohalarida yangi tashabbuslarni ilgari surish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Aynan shu muzokaralar natijasida AQSh moliya institutlari va yirik kompaniyalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish boʻyicha aniq



yoʻnalishlar belgilab olindi. Bu esa Oʻzbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, yuqori qoʻshimcha qiymat yaratadigan ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, ilgʻor texnologiyalarni qoʻllash va eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Davos va Vashington tashriflari oʻzaro bogʻliq strategik jarayon ekanini alohida taʼkidlash joiz. Davos maydonida Oʻzbekiston global xavfsizlik va barqarorlik masalalarida faol pozitsiyasini namoyon etgan boʻlsa, Vashingtondagi amaliy muloqotlar ushbu siyosiy tashabbuslarni iqtisodiy mazmun bilan boyitdi. Birida – qurolli mojarolarga siyosiy va diplomatik yoʻllar bilan yechim topishga qaratilgan tinchlik strategiyasi, ikkinchisida esa, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va yuqori texnologiyalarga asoslangan taraqqiyot modelini shakllantirishga qaratilgan aniq iqtisodiy qadamlar. Bu ikki yoʻnalish oʻzaro uygʻun holda milliy manfaatlar himoyasi hamda barqaror rivojlanishni taʼminlash va Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Muhimi shundaki, Oʻzbekiston bu jarayonlarda hyech qanday harbiy bloklarga qoʻshilmasdan, oʻz mustaqil va muvozanatli tashqi siyosiy yoʻlini

saqlab qolmoqda. Mamlakatimiz global masalalarda bir tomonlama emas, balki konstruktiv muloqot va oʻzaro manfaat tamoyiliga tayangan holda ishtirok etmoqda. Bu esa tashqi siyosatdagi pragmatizm, ochiqlik va milliy manfaatlar uygʻunligining yaqqol namunasi sifatida namoyon boʻladi. Oʻzbekiston xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ishonch muhitni mustahkamlash va barqarorlikka hissa qoʻshish yoʻlidan izchil bormoqda. Bu yondashuv mamlakatning diplomatik salohiyati va siyosiy taʼsir doirasini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Vashingtonga amaliy tashrif Davosda boshlangan tinchlik tashabbusining izchil davomi sifatida Oʻzbekiston tashqi siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Bir tomondan, mamlakatimiz global tinchlik va barqarorlik masalalarida faol tashabbuskor sifatida namoyon boʻlmoqda, ikkinchi tomondan esa strategik sheriklar bilan iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish orqali ichki taraqqiyotni taʼminlashga erishilayapti.

Eng muhimi, bu siyosat qisqa muddatli foyda emas, balki uzoq istiqbolga barqarorlik, taraqqiyot hamda xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan ongli va masʼuliyatli tanlovdir. Shu maʼnoda, Oʻzbekiston tanlangan tashqi siyosat yoʻli – ochiq muloqot, oʻzaro ishonch va amaliy hamkorlikka asoslangan tinchlik strategiyasi mamlakat manfaatlariga toʻla mos keladi hamda uning xalqaro maydondagi roli va taʼsirini yanada kengaytiradi.

Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senatining
Xalqaro munosabatlardagi
tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari
qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

QIZGʻIN MUNOZARALAR, MUHIM TAKLIF VA TAVSIYALAR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yigʻilishlari boʻlib oʻtdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan masalalar – “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2025-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti, Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani) ning 2025-yildagi bola huquqlari toʻgʻrisidagi qonunchilikka davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishi holati haqidagi maʼruzasi koʻrib chiqildi. Shuningdek, qator qonun loyihalari atroflicha muhokama qilindi.

Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida deputatlar davlat dasturining barqaror iqtisodiy oʻsish orqali aholi farovonligini taʼminlash yoʻnalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga alohida eʼtibor qaratdi.

Jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror oʻsishda davom etib, makroiqtisodiy oʻsishni taʼminlashga xizmat qilgani alohida aytiladi.

Deputatlar Davlat byudjeti daromadlarining sezilarli oʻsishi, ijtimoiy sohalariga yoʻnaltirilgan xarajatlarning oshirilishi taʼlim, sogʻliqni saqlash va suv xoʻjaligi kabi muhim tarmoqlarni izchil qoʻllab-quvvatlashga xizmat qilganini qayd etishdi.

– Investitsiya va moliyaviy faollik iqtisodiyotning barcha sohalarida oʻsish drayveriga aylandi, – deydi **fraksiya aʼzosi Otabek Musurmonov**. – Xorijiy investitsiyalar hajmining keskin koʻpayishi, yirik loyihalarni ishga tushirish va koʻplab ish oʻrinlarining yaratilishi sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmatlar sohalarida yuqori surʼatlarni taʼminladi. Kichik va oʻrta tadbirkorlikka ajratilgan kreditlar hajmining oshishi esa iqtisodiy faollikni joylarda kengaytirishga xizmat qilyotir.

Fraksiya yigʻilishida Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning maʼruzasi ham koʻrib chiqildi.

Maʼruzaga koʻra, vakilga bolalar tomonidan 42 ta murojaat yoʻllangan boʻlib, bu jami murojaatlarning 2,17 foizini tashkil etgan. 2025-yilda Bola huquqlari boʻyicha vakilning 35 ta shaxsiy qabulida 141 fuqaroning murojaati koʻrib chiqilgan. Shuningdek, oʻtgan davrda bolaning moddiy taʼminoti yuzasidan jami 403 mln. 745 ming soʻmlik aliment qarzdorligini undirishga koʻmaklashilib, 52 nafar yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum bolaga davlat boji va boshqa toʻlovlarisiz ID-kartalar rasmiylashtirilishiga amaliy yordam koʻrsatilgan.

Fraksiya aʼzolari vakilning 2025-yilda davlat organlarining bola huquqlariga oid qonunchilikka rioya etish holati boʻyicha maʼruzasi haqida oʻz fikr-muhazalarini bildirib, faoliyat samaradorligini oshirish boʻyicha tavsiyalar berishdi.

Munozaralardan soʻng koʻrib chiqilgan har ikkala masala ham deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Oʻzbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida Hukumat hisoboti partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, taʼlim qamrovini oshirish va ularda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 135 ta yangi davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Qamrov darajasi esa 78 foizga yetkazilgan. Xorijiy tillar, zamonaviy kasblar va kitobxonlik loyihalariga 7,8 mln. nafar yosh jalb etilib, xalqaro imtihon topshirish xarajatlarini kompensatsiyasi boʻyicha 17,3 ming yoshga 38,7 mlrd. soʻm ajratilgan.

Hukumat vakilining batafsil maʼlumotlaridan soʻng deputatlar oʻzlarini qiziqtirgan savollarni oʻrtaga tashladi. Jumladan, **deputat Azamat Pardayev** “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi tashabbusi bilan “Tirik tarix” turkumidagi filmlarni ishlab chiqish uchun 2025-yilgi Davlat byudjetidan 40 mlrd. soʻm qoʻshimcha mablagʻ ajratilganini taʼkidlab, hisobot yilida bu borada belgilangan vazifalar ijrosi qay darajada bajarilgani bilan qiziqdi. **Deputat Umida Rahmonova** esa qonunchilikda



oʻqituvchilarni taʼlimdan boshqa ishlariga jalb etmaslik boʻyicha qatʼiy chekllovlar qoʻyilgan boʻlishiga qaramay keyingi paytlarda bunga amal qilinmayotgani boʻyicha aniq misollarni keltirib oʻtdi. Shuningdek, darsliklar hamon oʻz vaqtida yetkazilmayotgani, maktab taʼmiri bilan bogʻliq masalalar ham koʻtarildi. Yigʻilishda deputatlar tomonidan berilgan barcha savollarga tegishli vazirliklardan javoblar olindi.

Oliy Majlisning Bola huquqlari boʻyicha vakili (Bolalar ombudsmani)ning 2025-yildagi faoliyatiga oid maʼruza ham koʻrib chiqildi.

Mamlakatimizda bolalar manfaatlarini har jihatdan himoya qilish davlatimiz

siyosatining asosiy yoʻnalishi hisoblanadi. Shu bois bola huquqlari, uning qadriyat sifatida tan olinishi boʻyicha mutlaqo yangi ijtimoiy normalarni shakllantirish yoʻlida jiddiy choralar koʻrilyapti. Buni soʻnggi yillarda ushbu yoʻnalishda qonunchilik bazasi va huquqni qoʻllash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar bajarilganida ham koʻrish mumkin.

Eng muhimi, davlatimiz rahbarining bola tarbiyasi masalasiga alohida eʼtibori va bu yoʻldagi qatʼiy siyosiy irodasi tufayli sohada keng koʻlamli huquqiy va institutsional yangilanishlar amalga oshirildi. Erishilgan yutuqlar nafaqat milliy darajada, balki jahon miqyosida xalqaro tashkilotlar tomonidan ham eʼtirof etilmoqda.

Yigʻilishda deputatlar Bolalar ombudsmanining 2025-yildagi faoliyati hamda davlat organlarining bola huquqlariga oid qonunchilikka rioya etish holati boʻyicha tayyorlangan maʼruzani qoʻllab-quvvatlab, “Milliy tiklanish” DP bolalarga nisbatan har qanday nomaqbul xatti-harakatlarni keskin qoralashini, bu boradagi huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish, jamoatchilik nazorati tadbirlarida faol qatnashishi lozimligini taʼkidladi.

Oʻzbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzolari Vazirlar Mahkamasi hisoboti muhokamasida partiya elektoratidan kelib chiqib, yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishida amalga oshirilayotgan ishlariga alohida eʼtibor qaratdi.

Taʼkidlanganidek, “yoshlar haftasi” orqali 74,3 ming nafar yoshni qoʻllab-quvvatlash uchun 216,1 mlrd. soʻm yoʻnaltirilgan. Yoshlar bandligi dasturi asosida 414,6 ming nafar yosh ish bilan taʼminlangan.

Oʻtgan davrda 331 ming nafar xotin-qiz kasb-hunar va tadbirkorlikka oʻqitilgan, 403 ming nafariga 22,7 trln. soʻm kredit ajratilgan. “Ayollar haftasi”ga kiritilgan 634,6 ming nafardan ziyod xotin-qizlar ishli

boʻlgan.

Munozaralar davomida aholini tibbiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash maqsadida 40 yoshdan oshgan 9 mln. fuqaro yurak-qon tomir kasalliklari hamda 10 mln. aholi qandli diabet kasalliklari boʻyicha skrining tekshiruvidan oʻtkazilgani taʼkidlandi.

– Fraksiyamiz yigʻilishida 2025-yilgi davlat dasturining ijrosi atroflicha koʻrib chiqilib, ijobiy baholandi, – deydi **fraksiya aʼzosi Gulnoraxon Abduvohidova**. – Sababi bugungi iqtisodiy hayotimizda oʻsish ijtimoiy yoʻnaltirilgan yangicha mazmun kasb etmoqda. Sud-huquq sohasidagi islohotlar esa adolat, huquqiy davlat va fuqarolar manfaatlarini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Bu partiyamiz elektorati –

oʻqituvchilar, shifokorlar, yoshlar, xotin-qizlar va ishchi-mehnatkashlar manfaatlariga toʻlaqonli mos keladi.

Yigʻilishda Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning maʼruzasi koʻrib chiqildi.

Munozaralar davomida fraksiya aʼzolari tomonidan bolalar bilan bogʻliq ishlar boʻyicha sud va tergov amaliyotida bolaning fikrini inobatga olish mexanizmlarini kuchaytirish, oilaviy nizolarda mediatsiya va psixologik xizmatlarni keng yoʻlga qoʻyish



boʻyicha zarur tavsiyalar berildi.

Yigʻilishda, shuningdek, yongʻin xavfsizligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi konseptual jihatdan koʻrib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan “Yongʻin xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonunga, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi, Jinoyat-protsessual hamda Jinoyat kodekslariga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Deputatlar qonun loyihasi yongʻinlarning oldini olish tizimini takomillashtirish, inson hayoti va sogʻligʻini ishonchli himoya qilish, yongʻin xavfsizligi boʻyicha aholi va tashkilotlar masʼuliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qilishini eʼtiborga olib, uni qoʻllab-quvvatladi.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzolari davlat dasturi ijrosini muhokama qilish jarayonida oʻz elektorati manfaatlarini himoyasiga qaratilgan yoʻnalishlarga alohida urgʻu berdi. Jumladan, ijtimoiy sohaga yoʻnaltirilgan xarajatlar 180,3 trln. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 18,2 foizga koʻpaygani eʼtirof etildi.

Xalq vakillari dastur ijrosi boʻyicha sogʻliqni saqlash, maktabgacha taʼlimga qamrov koʻrsatkichlari, bandlik va kambagʻallik yoʻnalishlarida amalga oshirilgan ishlar, yakuniga yetmay qolgan masalalar boʻyicha masʼullarga savollar bilan murojaat qildi.

Xususan, **fraksiya aʼzosi Dilbar Mamonova** bugungi kunda maktab yoshlarga yetgan nogironligi bor bolalarning 82 foizi taʼlim jarayonlariga qamrab olinganini qayd etib, bolalar bolalar qamrovi boʻyicha Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi qanday ishlar qilayotgani haqida

chiqildi.

Maʼlum qilinganidek, 2025-yilda Bolalar ombudsmani nomiga Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan 1934 ta murojaat kelib tushgan.

Fraksiya aʼzolari bola huquqlarining buzilishi yoki cheklanishi holatlari bilan bogʻliq muammolarni aniqlash, ularning manfaatlarini taʼminlash borasida Bolalar ombudsmani tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni eʼtibor etdi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda bolalar huquqlarini taʼminlash, ayniqsa, alohida taʼlim ehtiyojlariga ega va zoʻravonlik qurboni boʻlgan bolalarni tizimli muhofaza qilish masalasida baʼzi muammolar hanuzgacha saqlanib qolayotgani, ularning yechimlari boʻyicha taʼsirchan choralar koʻrish zarurligi alohida aytiladi.

Fraksiya aʼzolari barcha bolalar teng huquqliligi bilan birga teng imkoniyatlarga ega boʻlishi, ehtiyojmand bolalar himoyasi davlat tomonidan kafolatlanishi lozim, degan qatʼiy pozitsiyani bildirgan holda maʼruzani qoʻllab-quvvatladi.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida davlat dasturi doirasida ekologik yoʻnalishda amalga oshirilgan ishlariga alohida eʼtibor qaratildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida respublika boʻylab 265 mln. tup daraxt va buta koʻchati ekilgani, Orolboʻyi hududlarida keng koʻlamli yashil qoplamalar barpo etilgani, sanoat korxonalarida chiqindilar va atmosferaga zararli moddalar chiqarilishini kamaytirish boʻyicha choralar koʻrilgani aytiladi.

Respublikamiz tuman va shaharlarida

“yashil bogʻlar” va “yashil jamoat parklari” barpo etilgani, “Soyali sayr koʻchalari”, sogʻlomlashtirish yoʻlaklari tashkil qilgani aholiga qulay tabiiy muhit yaratish bilan birga, ularda sogʻlom turmush tarzini shakllantirmoqda.

Shuningdek, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy monitoring stansiyalarini oʻrnatish, oʻrmonzorlar maydonini kengaytirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilgani taʼkidlandi.

Fraksiya aʼzolari hisobotni muhokama qilish jarayonida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, sanoatda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini koʻpaytirish orqali ularni chuqur institutsional islohotlar bilan uygʻunlashtirish lozimligini taʼkidladi.

Muhokama chogʻida amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, qabul qilingan dasturiy hujjatlar ijrosining sifat koʻrsatkichlarini baholash, ekologik natijalarning uzoq muddatli samaradorligini taʼminlash hamda joylarda ijro intizomini yanada kuchaytirish masalalari yuzasidan takliflar bildirildi.

Yigʻilishda Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning maʼruzasi ham koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, Bolalar ombudsmani tomonidan 2025-yilda davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza etuvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari toʻgʻrisidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan samarali parlament nazorati amalga oshirilgan.

Xususan, “Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonun kuchga kirib, bolalarni zoʻravonlikdan himoyalashning mutlaqo yangi huquqiy mexanizmi joriy etilgan.

– Muhokama jarayonida bolalarning taʼlim olish, sogʻligʻini saqlash, oilaviy muhitda yashash hamda zoʻravonlikdan himoyalash huquqlarini taʼminlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar atroflicha tahlil qilindi, – deydi **fraksiya aʼzosi Navroʻz Yusupov**. – Shundan kelib chiqib, bola huquqlarini taʼminlash yoʻnalishida qonunchilik ijrosi ustidan parlament nazoratini yanada kuchaytirish, mutasaddi davlat organlari masʼuliyatini oshirish, ayniqsa, bolalarning ekologik huquqlarini himoya qilish, sogʻlom va xavfsiz muhitda yashash huquqini taʼminlash masalalariga alohida eʼtibor qaratish zarurligi bildirildi.

Yigʻilishda fraksiya aʼzolari tomonidan Bola huquqlari boʻyicha vakilning maʼruzasi qoʻllab-quvvatlandi.

Fraksiyalar yigʻilishlarida kun tartibidan oʻrin olgan barcha masala atroflicha muhokama etilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

«Xalq soʻzi».



Aks sado

DO‘STLIK VA
INSONPARVARLIKNING
OLIY NAMUNASI

Tinchlik – eng oliy neʼmat. Global dunyoning bugungi qiyofasi, turli mintaqalardagi keskin vaziyatlar bu neʼmat qadri va qiymatini beqiyos darajada oshirmoqda. Oʻtgan hafta Vashington shahrida Prezidentimiz ishtirokida, Oʻzbekiston taʼsischi mamlakatlar qatorida boʻlgan Tinchlik kengashining birinchi sammiti buni yana bir bor namoyon qildi.



Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida bu nufuzli tuzilmada qatnashish Oʻzbekiston uchun naqadar ahamiyatli ekanini haqida toʻxtalib, mamlakatimizning tinchlik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan muhim tashabbuslarini ifoda etdi. Bugun dunyodagi eng ogʻir nuqtalardan boʻlgan Gʻazo sektorida tinchlik oʻrnatish va barqaror hayotni tiklash borasida Oʻzbekistonning amaliy ishtirokini

baralla aytadi.

Gʻazoning har qanday tashqi boshqaruv mexanizmi sektor aholisining soʻzsiz ichki qoʻllab-quvvatlashiga taylanishi lozimligi taʼkidlanib, muvofiqlashtirilgan saʼy-harakatlar Gʻazoni tez fursatda qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, mojarodan keyingi jarayonlarni barqarorlashtirishga xizmat qilishi qayd etildi. Bu suverenitet, adolat va uzoq muddatli barqarorlik tamoyillariga asoslangan yondashuv ekanini anglatadi.

Aytish mumkinki, ayni shu jihat Oʻzbekistonning jahonaro nufuzi oshishiga, doʻstlari safi kengayishiga, mamlakatimiz dunyoga bagʻrini ochishiga kuchli turtki berdi. Bugun Oʻzbekiston xalqaro hamjamiyatning faol ishtirokchisi sifatida tan olina boshlandi.

Sammitdagi nutqda bildirilgan “Oʻzbekiston Gʻazo sektorida turarjoylar, bolalar bogʻchalari, maktab va kasalxonalar barpo etishga imkon qadar hissa qoʻshishga tayyor” degan insonparvar tashabbus esa nafaqat kengash ishtirokchilari, balki xalqaro miqyosda chuqur eʼtirof va xayrixohlik bilan kutib olindi.

Davlatimiz rahbarining Amerika Qoʻshma Shtatlariga tashrfi doirasida boʻlib oʻtgan ikki tomonlama hujjatlarni imzolash va qoʻshma loyihalar taqdimoti oʻzaro ishonch hamda amaliy hamkorlikka asoslangan yangi bosqichni boshlab berdi, deyish mumkin. Avvalgi muloqotlarning mantiqiy davomi boʻlgan ushbu muhim uchrashuvlar yangicha va samarali formatda iqtisodiy sheriklikni yanada yuksak darajaga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tashrif davomida energetika, qishloq xoʻjaligi, mineral resurslar, agrosanoat, moliya bozori va investitsiya muhiti yaxshilashga qaratilgan muhim hujjatlar imzolangan mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotiga kuchli turtki berib, Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini va ishonchli hamkor sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Eng muhimi, sayyoramizdagi iqlim oʻzgarishlaridan kelib chiqqan holda, “yashil” energetikani rivojlantirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan qoʻshma loyihalar yangi drayverlarga ehtiyoj sezayotgan AQSh uchun ham, qulay iqlim sharoitiga, boy tabiiy resurslarga ega Oʻzbekiston uchun ham birdek manfaatli boʻlishi, shubhasiz. SVU resurslarida tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, muhim mineralarni qazib olish va yetkazib berish ikki mamlakat uchun ham bugun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xomashyoni chuqur qayta ishlash, qoʻshimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga oʻtish yuqori texnologiyali ish oʻrinlari yaratishga, “yashil” taraqqiyotning yangi bosqichlariga chiqishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning okeanortiga navbatdagi tashrfi Oʻzbekistonning dunyodagi nufuzini yana bir yangi darajaga olib chiqishda, doʻstlik va insonparvarlikka asoslangan egzuglik nafasini keng yoyish hamda mamlakatimizning taraqqiyot bosqichida yana bir muhim qadam boʻldi.

Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi
Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.

Ombudsman instituti

SAMARALI MULOQOT
MEXANIZMI

Inson huquqlari va erkinliklarini taʼminlash, shaxs manfaatlarini himoya qilish hamda qonun ustuvorligini qaror toptirish har qanday demokratik davlatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekistonda Ombudsman instituti alohida ahamiyatga ega boʻlib, fuqarolar huquqlarini himoya qilishning mustaqil va samarali mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda inson huquqlarini taʼminlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar yaratilishiga katta eʼtibor qaratilgan. MDH davlatlari orasida Oʻzbekiston birinchilardan boʻlib, 1995-yil 23-fevral kuni Oliy Majlis huzurida Inson huquqlari boʻyicha vakil (ombudsman) institutiga asos soldi. Keyinchalik, 1997-yilda qabul qilingan qonun Ombudsmaning huquqiy maqomini, vakolatlarini va faoliyat yoʻnalishlarini belgilab berdi, shuningdek, davlat organlari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda ish yuritishini kafolatladi.

2004-yilda institutning maqomi va vakolatlari yangi parlament tuzilmasiga moslashtirish maqsadida qayta koʻrib chiqildi. Shunda Ombudsmaning daxlsizlik huquqi belgilanib, fuqarolar va chet el fuqarolari murojaatlarini koʻrib chiqish, jazoni ijro etish muassasalariga kirib sharoitlarni tekshirish huquqi mustahkamlandi. Davlat idoralari Ombudsmaning soʻroviga asosan barcha zarur hujjat va materiallarni taqdim qilishga majbur boʻldi.

2024-yil 15-noyabrda imzolangan yangi qonun Ombudsman institutining vakolatlarini yanada kengaytirdi. Endilikda vakil qonunchilik tashabbusi huquqiga ega boʻlib, davlat idoralarga nisbatan qatʼiy huquqiy choralar qoʻllay oladi. Murojaatlar asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – keksalar, nogironligi boʻlgan shaxslar, ayollar huquqlari ustuvorlikka ega.

Ombudsman instituti davlat va jamiyat oʻrtasida muloqot mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi, fuqarolarning davlat idoralarga ishonchini mustahkamlaydi va qonun ustuvorligini taʼminlaydi. Shu tariqa huquqiy madaniyat va fuqarolarning huquqiy ongi yuksalib, jamiyatda adolat hamda shaffoflik mustahkamlanmoqda.

Shuhrat JOʻRAYEV,
Oliy Majlis Inson huquqlari boʻyicha vakili
(ombudsman)ning Navoiy viloyatidagi mintaqaviy vakili.

SHOVQIN ICHIDAGI
DAʼVATKOR OVOZ

Natijada mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari yanada dadilroq boʻldi, roʻy berayotgan voqyea-hodisalarni chuqurroq tahlil qila boshladi. Ilgari “soyada qolib ketgan” mavzular bugun professional nuqtai nazardan oʻz bahosini olmoqda. Tanqid, tahlil, xolislik va xabardorlikka intilish koʻplab tahririyatlarning asosiy maqsadiga aylandi. Shu bilan bir qatorda, internet-jurnalistika juda tezkor surʼat bilan rivojlanayapti. Yaʼni yangiliklar portallarining auditoriyasi kengaymoqda, ijtimoiy tarmoqlarning pozitsiyasi kuchaymoqda, kichik videodan iborat shakl, ayniqsa, tez ommalashib boryapti. Bunday raqamli koʻpovozlilik sharoitida anʼanaviy OAV ham oʻzining fundamental tamoyillarini saqlab qolgan holda zamon bilan hamnafas boʻlishga intilmoqda.

Bugungi kunda onlayn-platformalar soʻzsiz yuqori oʻringa chiqib olayotgani haqidagi fikrlarni koʻp eshitaymiz. Chindan ham, axborotning tarmoqda tarqalish tezligi hayron qolarli darajada. Lekin shunday sharoitda ham koʻplab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bosma nashrlar millionlab adadda nashr etilyapti. Va ularning koʻpi bizning qitʼamizda joylashgan. Maʼlumotlarga koʻra, dunyodagi eng koʻp sotiladigan 100 ta kundalik gazetadan 74 tasi Osiyoda chiqadi, ularning 62 tasi esa Xitoy,

gʻoyat achinarli. Aslida, bu ishni samarali tashkil etish uchun yurtimizda hamma imkoniyat bor. Axir oziq-ovqat mahsulotlarini mijozlarga yetkazib berish xizmati naqadar rivojlanganiga barchamiz guvoh boʻlib turibmiz. Biror “fast-fud” yoki taom buyurtma qiling, 10 – 15 daqiqada ostonangizga olib kelib berishadi. Demak, gazeta-jurnallarni ham zudlik bilan oʻz oʻquvchilari qoʻliga tutqazish mumkin. Buni jahon tajribasi ham isbotlaydi.

Ammo negadir bu haqda hyech kim oʻylab koʻrmayotgandek, nazarimizda. Faqat moddiy manfaat ilinjida, aniqroq aytganda, qorinni toʻygʻazish qaygʻusida yashayotgandekmiz. Qalbni boyitish, didni oʻtkirlashtirish, tafakkurni charxlash quyi darajaga tushib qolgan. Bu esa kelgusida ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

“Oʻtkan kunlar” romanida Yusufbek hoji tilidan “Nega har narsaga yetgan aqling shunga kelganda oqsaydир?” degan iborani qoʻllagan maʼrifatparvar jadid bobomir Abdulla Qodiriy bizning bugungi ahvolumizni koʻrganida “Qorinni toʻydirishga yetgan puling nega maʼnaviyatningni boyitishga kelganda oqsaydир?” deb yuborardi. Bugun har tomonlama isteʼdodli yoshlar bilan birga gazeta-jurnallar, kitoblar mutolaasidan mosuvo avlod ham ulgʻaymoqda. Ular internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardan boshqa axboriy vositalarni tanimaydi va tan olmaydi. Taniqli qiziqchilardan biri aytganidek, “hatto pasportini ham oxirigacha oʻqimagan” bu yoshlarda toʻgʻri yozish va oʻqish, imlo, savod masalasi shu qadar xarobki, qoʻliga qalam tutib oʻz ism-sharifini yozdirsangiz, bir nechta xato qiladi.

Bir vaqtlar deyarli har xonadonga matbuot nashrlari bilan birga oʻziga xos maʼnaviy-maʼrifiy ruh ham kirib borgan. Oʻgʻil-qizlar ota-onalarining qoʻlida gazeta-jurnal koʻrib ulgʻaygan. Ularni oʻzlari ham oʻqishga uringan. Jillaqursa, stol ustida turgan gazeta yoki jurnalni bir bor varaqlab koʻrgan. Shu orqali ularda soʻzlarning toʻgʻri yozilishi, mamlakatda kechayotgan voqyea-hodisalar haqida tushuncha, koʻnikma hosil boʻlgan. El-yurt taqdiriga daxldorlik bolalikdan shakllangan.

Yaponiya va Hindistonda chop qilinadi. Buning ustiga, bu mintaqada ularning umumiy adadi ham ortib bormoqda. Raqamlardan koʻrinib turibdiki, gazeta hali ham jamiyat hayotida muhim oʻrinni egallab kelmokda.

Mamlakatimizning ochiqligi va sayyohlik sohasining rivoji tufayli keyingi yillarda oʻzbekistonliklar xorijiga tez-tez chiqish imkoniyatiga ega boʻldi. Ular turli mamlakatlarda yashovchi aholining kundalik hayotiga matbuot qanchalik chuqur kirib borganiga guvoh boʻlishgani aniq. Turkiyada, masalan, oddiy supermarketga borgan odam kiraverishda oʻnlab kundalik gazetalar terib qoʻyilgan tokchalarni koʻradi. Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Singapur va Xitoyda gadjetlar, tezkor internet hamma joyda mavjud boʻlsa-da, metro va jamoat transportida yangi gazeta yo kitob oʻqib ketayotgan kishilarni uchratish mumkin. U yerda odamlar gazeta, jurnal va kitobni “eskilik sarqiti” deb hisoblashmaydi, aksincha – ularni afzal bilgan holda toʻgʻri tanlov qilishadi.

Afsuski, biz haqimizda bunday deyish qiyin. Axborotga ehtiyojni qisqa videoroliklar orqali qondirish odatga aylanib qolganini inkor qilib boʻlmaydi. Lekin bunday shakl hamma narsaning oʻrmini bosa oladimi? Menimcha, javob tayin. Qisqa xabar vaqtni tejashi mumkin, biroq har doim ham chuqur, teran maʼlumot bera olmaydi. Tez-tez bir-birini almashtirib turgan xabarlar oqimi sinchiklab oʻqiladigan tahliliy maqola oʻrmini bosmaydi.

Shu asnoda aytish lozimki, davriy matbuot va kitob mutolaasining orasida toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqlik bor. Bu azaldan maʼlum. Davlatimiz yoshlarni kitob bilan doʻstlashishga ragʻbatlantirish masalasiga katta eʼtibor bermokda. Oʻqishga odatlanish esa faqat badiiy adabiyot sahifalari orqali shakllanmaydi. U har kuni sifati matnlarga, tahliliy materiallarga, keng fikrlashga undovchi manbaga murojaat qilishdan boshlanadi.

Qorinni toʻydirishga
yetgan pul...

Har bir gazeta hozirgina tandirdan uzilgan nondek oʻziga xos “taft”ga, taʼm”ga ega. Uni hovuri bosilmasdan, issiq holda “isteʼmol qilish” oʻquvchiga huzur bagʻishlaydi. Yaʼni gazetaning ahamiyati undagi materiallarning mazmunan yangiligi, mavzularning oʻz dolzarbligini yoʻqotmagani, fikr va qarashlarning qaynoqligi bilan baholanadi. Shu bois mushitariylar gazetaning har bir sonini nashr etilgan kunioyq qoʻliga olishni, undagi yangiliklar, maqolalar bilan ohori toʻkilmasdan, eskirmasdan tanishishni xohlaydi.

Biroq afsuski, gazetalar oʻz vaqtida mushitariylarga yetkazib berilmay qoladi. Bu ish bilan bogʻushlanadigan pochta boʻlimlarining ahvoli tang. Ularda masʼuliyat, javobgarlik ham oʻta susayib ketgan.

Texnika-texnologiya jadal rivojlangan hozirgi zamonda oʻquvchilarga oʻzlari obuna boʻlgan gazetalarini yetkazib berish tizimi izdan chiqqani

«Qalam bilan bitilganni bolta
chopa olmaydi»

Shu oʻrinda aytish kerakki, gap yangi anʼanalarni tan olmaslik haqida borayotgani yoʻq. Biz bugun texnologiyalar zamonida yashayapmiz va mavjud holatga koʻz yumish gʻalati koʻringan boʻlar edi. Ammo oʻzgarishlarni diqqat bilan kuzatish va ularning oqibatini anglash muhim-da. Ayniqsa, his-hayajon sohasida. Koʻpgina raqamli platformalar shunday kontentni ilgari surishadiki, u nisbatan juda tez vaqtda, yaʼni bir-ikki lahzada munosabat bildirishga moʻljallangan, munosabatning oʻzi ham – ajablanish, hayajon, qoʻrquv yo xafalik. Voqyeani buzib koʻrsatish, feyk (uydirma) xabarlar, emotsional kuchaytirish – bularning barchasi auditoriyaning qabul qilishiga taʼsir koʻrsatadi.

Bunday sharoitda anʼanaviy bosma nashrlar tomonidan asrlar osha shakllantirilgan xususiyatlarga muhim qadriyat boʻla oladi. Ayni vaqtda shunday axborot “zaharlanishi” yuzaga keldiki, dalillarni sinchiklab tanlash va saralay olish juda zarur boʻlmoqda. “Qalam bilan bitilganni bolta chopa olmaydi”, degan ibora koʻpgina gazetalar tahririyatlari uchun kasbiy qoidaga aylanib qolgan. U faqat shior emas. Gazetalar oʻquvchining qiziqishlari haqida qaygʻuradi, maqolaning ular ongiga qanday taʼsir qilishi boʻyicha tahlil ham oʻtkazadi.

Koʻpincha shunday savollarga duch kelamiz: bugungi kunda, tezkorlik eng asosiy mezoniga aylangan bir davrda gazetalar tahririyati nima uchun haliyam oʻsha bir necha bosqichli matn oʻqish tizimini saqlab turishibdi? Nega har bitta

Gazetadagi chiqishlar orasida fuqarolarning murojaatlari boʻyicha tayyorlangan maqolalar ham anchagina. Odamlar gazeta tahririyatlariga xat yoʻllashadi, oʻz muammolari bilan boʻlishib, koʻmak soʻrashadi. Sahifalarda ijtimoiy-maishiy mavzudagi, islohotlar sharoitida kelib chiqayotgan qiyinchiliklar haqidagi materiallar sezilarli joy egallaydi. Bu esa – jamiyatning urib turgan yuragi. Shu yurak urushini his qilib turish matbuotning kundalik vazifasi hisoblanadi.

maqola musahhih va muharrirlar orqali oʻtadi, baʼzan hatto qayta ishlash uchun muallifga qaytariladi? Bu savollarning javobi oson: oʻzini hurmat qiluvchi gazetalar uchun har bitta kichik xato – favqulodda hodisa. Matbuot sohasining asosiy majburiyati ham shunda. Muharrir va muxbirlar orasida kasbga sadoqat katta rol oʻynaydi, desak, xato boʻlmaydi. Kasbiy talab va koʻnikmaga binoan, xodimlar avvalgiday grammatik meʼyorlarga rioya etish, til boyligini qadrlash, har bitta iborani aniq va oʻz oʻrnida ishlatish haqida qaygʻuradi. Negaki, savodli yozilgan matn oʻqiydigan kishi oʻzi ham toʻgʻri yozish va aniqroq fikrlashga oʻrganadi.

Kadrlarni tayyorlash ham alohida mavzu. Gazetalar tahririyatlari haliyam media sohasi xodimlari uchun yuqori kasbiy mahorat maktabi boʻlib kelmokda. Tahririyatda yosh jurnalistlar masʼuliyat maktabini oʻtaydi. Ular manbalar bilan ishlash, dalillarni tekshirish va tasdiqlash, tilni hurmat qilish kabi koʻnikmalarga ega boʻladi. Bugun onlayn-nashrlarda, televideniya, matbuot xizmatlarida muvaffaqiyat bilan ishlayotgan xodimlarning koʻpchiligi, avvalo, viloyat va respublika bosma nashrlarida mehnat qilib, tajriba toʻplagan.

Yana, gazeta tahririyatlarining vakillari jurnalistika sohasidagi oliy taʼlim muassasalarida dars beradi. Bunda talabalarga kasbning asosiy qoidalari oʻrgatiladi, sifat tamoyillari shakllantiriladi. Format oʻzgarishi mumkin, ammo asosiy tamoyillar oʻrnida qoladi.

Bosma axborotning ovozi hyech qayerga yoʻqolmagan. Balki qandaydir daqiqada atrofidagi baland shovqin tufayli yaxshi eshitilmayotgandir. Lekin aslida, uning kuchi ham shunda. Baland ovozda xabarlar, tugamaydigan yangiliklar tasmasi davrida gazeta yangi voqeyilik boʻyicha bir toʻxtanga keluvchi muloqotlar uchun maydon boʻlib xizmat qilmoqda. Shunday voqeyilikki – raqam zamonaviylik va anʼanal bir-biriga qarama-qarshi emas, aksincha, bir-birini toʻldiradi. Raqamli oqim puxta oʻylangan bosma matn bilan hamroh kabi birga yuradi. Bu yoʻlda davlat, jamiyat va barcha turdagi ommaviy axborot vositalarining manfaatlari umumiy – Vatan ravnaqi, taraqqiyoti.

Jamiyatning urib turgan
yuragi

Oʻzbek jurnalistikasi haqida soʻz ketar ekan, gazeta tahririyatining kuchli maktabini saqlab qolish – strategik masala ekani oydek ravshan.

Shunday sharoitda gazetalar zamonaviy anʼanalardan ham chetda emas. Ular ham raqamli platformalarni faol ravishda egallamoqda, saytlarini rivojlantirmoqda, multimedia mahsulotlarini yaratmoqda. Onlayn-OAVning bir daqiqalik tezkorligi ortidan quvmagan holda, matbuot voqyea-hodisalarning mohiyatini ochib berish, dalillarni har tomonlama tahlil etish va mutaxassislar yordamida sharhlashga harakat qilmoqda.

Gazetadagi chiqishlar orasida fuqarolarning murojaatlari boʻyicha tayyorlangan maqolalar ham anchagina. Odamlar gazeta tahririyatlariga xat yoʻllashadi, oʻz muammolari bilan boʻlishib, koʻmak soʻrashadi. Sahifalarda ijtimoiy-maishiy mavzudagi, islohotlar sharoitida kelib chiqayotgan qiyinchiliklar haqidagi materiallar sezilarli joy egallaydi. Bu esa – jamiyatning urib turgan yuragi. Shu yurak urishini his qilib turish matbuotning kundalik vazifasi hisoblanadi.

Shunday sharoitda bosma nashrlarga nisbatan: “Ular endi eskirdi, dolzarbligini yoʻqotdi, raqamli platformalarga yutqazdi” kabi istehzolar uchrab qolyapti. Bunday fikrdagi insonlar bir jihatni hisobga olishmayaptiki, gazetaning vazifasi faqat voqyea-hodisalar haqidagi axborotni yetkazishdan iborat emas. Matbuot – masʼuliyat makoni, til va tafakkur maktabi boʻlib qolaveradi. Gazetalarda eʼlon qilingan yangiliklar, sharh va tahlillar, umuman, zamon ruhi mazkur davr arxivida saqlanib qoladi, bir necha oʻn yilliklardan keyin ham barcha undan foydalana oladi.

Ayni paytda mamlakatimiz kelajak sari dadil intilayotganda, islohotlar anglash va izohlashni talab etayotganda, jamiyat esa muloqotni kutayotganda, bosma OAVning roli yana ham dolzarb boʻlib bormoqda. Gazetalarning aytadigan soʻzi, tahlil qiladigan mavzulari, bahs-munozara uchun sabablari bor, muozarani esa bamayilxotir, aniq dalillarga tayangan holda olib borish uchun imkoniyatlari ham

yetarli.

Muntazam izlanishlar mahsuli oʻlaroq gazetalar ham takomillashmoqda. Ularning dizayni oʻzgarmokda. Formatlar yangilanyapti, ekspertlar doirasi kengaytirilib, yosh mualliflar jalb qiliyapti. Matbuot davr ruhiga, mustariylarning yangi talablariga moslashishga tayyor.

Tan olish lozimki, yangi davrda mediabozorning rivoji har doim ham teng sharoitlarda boʻlmayapti. Matbuotning bozor mexanizmlariga oʻtishi zarurligi haqidagi muloqotlarda baʼzi savollar juda kam holatlarda koʻtarilmoqda. U ham boʻlsa, nashrni tarqatish infratuzilmasi qanchalik mukammal? Mamlakat boʻyicha gazeta sotish kioskalari yetarlimi? Yetkazib berish xizmati qanchalik samarali ishlayapti? Qogʻoz narxi va bosmaxona xizmatlari raqobatbardoshmi? Mana shu savollarga javob topmay turib, matbuot sohasida format va barqarorlik boʻyicha toʻlaonli raqobat haqida gapirish qiyin.

Qator mamlakatlarda davlat bosma nashrlarning ahamiyatini anglangan holda, ularni madaniy siyosat elementi sifatida qoʻllab-quvvatlaydi. Bunday koʻmak nashrlarni subsidiyalash va ularni tarqatish dasturlarini roʻyobga chiqarish, gazetxonlik boʻyicha barqaror odatni shakllantirish uchun imtiyozli va bepul obuna tashkil etish koʻrinishida boʻladi. Bunday tashabbuslar millatning intellektual salohiyatiga investitsiya sifatida qaraladi.

Oʻtkir RAHMAT.

O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI DRAYVERI

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida insonning intellektual salohiyati va kreativ g'oyalari eng qimmatli resursga aylanmoqda. Dunyo yalpi ichki mahsulotining 3 foizidan 7 foizigacha bo'lgan qismi aynan kreativ sohalar hissasiga to'g'ri kelayotgani bu yo'nalishning global ahamiyatini ko'rsatadi.

Nuqtai nazar

Yaqinda davlatimiz rahbari ishtirokida o'tkazilgan taqdimot mamlakatimizda ushbu sohani mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish strategiyasini belgilab berdi. Aytish joizki, yurtimizda kreativ iqtisodiyot sezilarli natijalarni ko'rsatmoqda. Bu sohada 319 mingdan ortiq aholi mehnat qilayotgani uning istiqbolli ekanidan dalolat beradi. Ko'rsatkichlar sohaning poydevori mustahkam ekanini, biroq imkoniyatlar hali to'liq ishga solinmaganini anglatadi.

Kreativ iqtisodiyot ("bilimlar iqtisodiyoti") - bu asosiy harakatlaniruvchi kuchi insonning intellektual salohiyati, g'oyalari, mahorati va iste'dodi hisoblangan iqtisodiy tizimdir. Oddiy aytganda, bu sohada moddiy resurslar emas, balki miya mahsuloti hamda intellektual mulk asosiy boylik hisoblanadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, u - cheksiz resurs. Tabiiy boyliklar tugashi mumkin, lekin inson g'oyalari tugamaydi. Iqtisodiyotning bu turi yuqori qiymat, degani. Shu bilan birga, ekologik toza, ya'ni u odatda tabiatga zarar yetkazmaydi. Eng asosiysi, yoshlar uchun katta imkoniyat hamdir. Bu sohada muvaffaqiyatga erishish katta sarmoya emas, balki bilim hamda ijodkorlik talab etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotda oshirish darajasidagi o'sishni amalga oshirish uchun uchta asosiy omil mavjud. Birinchisi, demografik dividend, ya'ni aholining 60 foizdan ortig'ini bilimli va tashabbuskor yoshlar tashkil etadi. Ikkinchisi, raqamli infratuzilma. Internet va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi g'oyalarni global bozorga olib chiqishni osonlashtirmoqda. Uchinchisi, madaniy meros. Ming yillik tarix, boy san'at va madaniy qadriyatlar kreativ mahsulotlar yaratish uchun tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi.



Huquqiy himoya va imkoniyatlar eshigi

Ayni sohani tizimli rivojlantirish uchun mamlakatimizda 2024-yilda ilk bor "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu soha vakillari uchun huquqiy himoya va yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Eng muhim yangiliklardan biri - Kreativ industriya parkining tashkil etilishi bo'ldi. Park rezidentlari uchun daromad va ijtimoiy soliq stavkalari 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Tadbirkorlarga qator bojxona va ma'muriy yengilliklar berildi. Ushbu imtiyozlar soyada ishlayotgan kreativ vakillarni rasmiy sektorga o'tishga va o'z biznesini kengaytirishga undaydi. O'zbekiston 2030-yilga qadar kreativ iqtisodiyotni taraqqiyotning yetakchi bo'g'iniga aylantirishni maqsad qilgan. Buning uchun YAIMdagi ulushni 5 foizga (145 trln. so'mga) yetkazishi, eksporti 1 mlrd. dollarga olib chiqishi, sohada band bo'lganlar sonini 500 ming kishidan oshirish rejalashtirilgan.

Darvoqe, kreativ iqtisodiyot - bu shunchaki san'at yoki IT emas, bu millatning intellektual quvvatini iqtisodiy farovonlikka aylantirish san'ati. Shu nuqtai nazardan, Prezident tomonidan belgilab berilgan yangi maydonlar, infratuzilma va imtiyozlar O'zbekistonn mintaqadagi kreativ xabga aylantirishga xizmat qiladi. Endilikda asosiy vazifa - ushbu imkoniyatlardan foydalanib, jahon bozorida raqobatbardosh "Made in Uzbekistan" brendi

ostidagi kreativ mahsulotlarni ko'paytirish. Demak, O'zbekiston o'z iqtisodiyotini diversifikatsiyalash yo'lida navbatdagi strategik qadamni tashlamoqda.

Davlatimiz rahbariga taqdim etilgan yangi loyihalar mamlakatda kreativ industriya shunchaki nazariya emas, balki aniq moddiy va raqamli infratuzilmaga ega bo'lgan quvvatli sohaga aylanayotganini ko'rsatdi. Toshkentdan Nukusgacha bo'lgan hududlarda barpo qilinadigan kreativ parklar va madaniyat markazlarining transformatsiyasi bunga yorqin misoldir.

Yangi g'oyalar tug'iladigan maydon bo'ladi

Poytaxtda tashkil etiladigan Kreativ industriya parki o'ziga xos "shahar ichidagi shahar" bo'ladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida quriladigan

Kreativ iqtisodiyot - bu shunchaki san'at yoki IT emas, bu millatning intellektual quvvatini iqtisodiy farovonlikka aylantirish san'ati. Shu nuqtai nazardan, Prezident tomonidan belgilab berilgan yangi maydonlar, infratuzilma va imtiyozlar O'zbekistonn mintaqadagi kreativ xabga aylantirishga xizmat qiladi. Endilikda asosiy vazifa - ushbu imkoniyatlardan foydalanib, jahon bozorida raqobatbardosh "Made in Uzbekistan" brendi ostidagi kreativ mahsulotlarni ko'paytirish. Demak, O'zbekiston o'z iqtisodiyotini diversifikatsiyalash yo'lida navbatdagi strategik qadamni tashlamoqda.

ushbu majmua ijodkorlar uchun to'liq ektizimni taqdim etadi. Bunda Xalqaro dasturlash tarmog'ining Toshkent maktabi va kreativ kampus, zamonaviy kino hamda video ishlab chiqarish maydonlari, professional ovoz yozish studiyalari, yashil bog', kitob kafesi, kooperativ ofislar (kovorking) va ijodkorlar uchun maxsus mehmonxonalar barpo etiladi. Bunday maskan nafaqat ish joyi, balki turli soha vakillari (dasturchilar, dizaynerlar, rejissyorlar) uchrashadigan hamda yangi g'oyalar tug'iladigan maydonga aylanadi.

Quvonarlisi, kreativ iqtisodiyot faqat poytaxt bilan cheklanib

qolmaydi. Yangi Toshkent hududida rezidentlar uchun zamonaviy media hamda anjuman zallari qurilsa, Nukus shahrida mutlaqo yangicha yondashuv qo'llaniladi. Nukusda barpo etiladigan markazning o'ziga xosligi shundaki, u yerda zamonaviy kutubxonaga ham tamal toshi qo'yiladi. Bu maskan Qoraqalpog'istonning madaniy va intellektual hayotini yangi bosqichga olib chiqadi.

Taqdimot davomida mamlakatdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari faoliyati jiddiy tanqid qilindi. Ularning yarmidan ko'pi ta'mirlalbligi bilan bayram tadbirlari bilan cheklanib qolgani sohadagi asosiy muammo sifatida ko'rsatildi. Bunga yechim bo'ladigan "Madaniyat - ta'lim - hordiq - muloqot" zanjiri taklif etildi. Ta'kidlash kerakki, infratuzilmani yangilash - bu shunchaki binolar

qurish, degani emas. Bu ijodkor insonga sharoit yaratish, uning salohiyatini daromadga hamda ijtimoiy boylikka aylantirish demakdir. O'zbekistonda boshlangan ushbu kreativ yangilanish yaqin yillarda mamlakatning intellektual eksport salohiyatini tubdan oshirishi, shubhasiz.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish faqat madaniy masala emas, balki strategik iqtisodiy vazifadir. Milliy san'atni iqtisodiyotning drayveriga aylantirish orqali yangi ish o'rnlari yaratish, turizm jozibadorligini oshirish hamda "O'zbekiston brendi"ni dunyoga yanada kengroq tanitish mumkin. Ishonchimiz komilki, o'zbek hunarmandchiligi va me'morchiligi yuqori daromadli sohaga aylanadi.

Madaniy merosni asrab-avaylash yo'lida

O'zbekiston o'zining boy madaniy merosini nafaqat asrab-avaylash, balki uni zamonaviy dunyo talablariga mos ravishda rivojlantirish yo'lida yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Taqdimotda mamlakatimiz san'at ta'limi tizimini xalqaro standartlar asosida isloh etish va tarixiy obidalarni restavratsiya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari belgilab berildi.

Toshkent shahrida An'anaviy san'at oliy maktabining ochilishi bilan bog'liq yangilik barchani mamnun etgani rost. Muhimi, bu muassasa shunchaki o'quv yurti emas, balki milliy hunarmandchilikni ilm-fan bilan uyg'unlashtiruvchi markaz bo'ladi. Maktabda ta'lim me'morchilik hamda qurilish, kulolchilik, g'isht terish va dekorativ bezak, amaliy san'at, yog'och o'ymakorligi, geometrik hamda biomorf naqshlar, nafis san'at, arxiv va me'moriy xattotlik yo'nalishlarida olib boriladi.

E'tiborlisi, ta'lim to'liq ingliz tilida bakalavriat hamda magistratura dasturlari asosida tashkil etiladi. Bu o'zbek ustalari nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Rejaga ko'ra, 2027-yilda ilk 50 nafar, 2031-yilga borib esa yiliga 80 nafar yuqori malakali kadr tayyorlash quvvatiga erishiladi.

Bu hali hammasi emas. Mamlakatimizning tarixiy shaharlarini asl holda saqlab qolish uchun Milliy restavratsiya instituti tashkil etiladi. Shu bois dunyoga mashhur Bixixonim masjidini restavratsiya qilish hamda "Turkiston" yozgi amfiteatrini ta'mirlash va boshqa qator istiqbolli loyihalar ham ko'rib chiqildi.

Obidjon HAMIDOV, Buxoro davlat universiteti rektori.

REKLAMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

vakant (bo'sh) professor-o'qituvchilar lavozimiga tanlov e'lon qiladi

1. Avtomatlashtirish va dasturiy injiniring	katta o'qituvchi
2. Aniq va tabiiy fanlar	professor
3. O'zbek va xorijiy tillar	kafedra mudiri
4. Charm va poyabzal muhandisligi	kafedra mudiri, assistent
5. Iqtisodiyot va menejment	kafedra mudiri
6. Kimyo va matbaa muhandisligi	kafedra mudiri, dotsent
7. Mehnat muhofazasi va ekologiya	professor
8. Materialshunoslik va standartlashtirish	kafedra mudiri
9. Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring	professor
10. Moda va dizayn	professor
11. Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat	kafedra mudiri, dotsent

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqga, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar, diplomlar va attestatlar nusxalarini topshiradi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tkazadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona. Tel.: 71-253-17-78.

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

Zargarlik klasteri: dunyobozoriga chiqish imkoniyati

Buxoro shahrida zargarlikka ixtisoslashtirilgan klaster o'z faoliyatini boshladi. Qiymati 38 mlrd. so'mni tashkil etgan loyihani amalga oshirishda mahalliy va turkiyalik investorlar hamkorligi qo'l keldi.

- Buxoro azal-azaldan zargaru zardo'zlar yurti sifatida ham tanilgan, - deydi mazkur klasterning ochilish marosimida qatnashgan mehnat faxriysi Bahodir To'rayev. - Qolaversa, el orasida "Dunyoda bir nafargina ayol qolganida ham zargarga ish topiladi", degan naql bor. Shu ma'noda, ushbu klasterning ish boshlashi xalq amaliy san'atining mazkur turini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'taradi, deya ishonch bilan ayta olamiz.

Kuzatishlar ko'rsatyaptiki, ichki bozorda sotilayotgan zargarlik buyumlarining bir qismi xorijdan importga keltirilmoqda. Vaholanki, ish oqilona yo'lga qo'yilsa, mahalliy zargarlik mahsulotlarini dunyo bozoriga chiqarish imkoniyati bor. Klaster shu maqsad yo'lga ham xizmat qiladi. Negaki, buxorolik hunarmandlar qo'ldan chiqqan zebu ziynatlar o'ziga xosligi, nafisligi bilan ajralib turadi.

Bevosita klasterga to'xtaladigan bo'lsak, u yiliga 300 kilogrammgacha zargarlik buyumi ishlab chiqaradi. O'z navbatida, bu yerda 100 ta ish o'rni yaratilgani ham e'tiborga molik.

Ushbu loyiha davlatimiz rahbarining 2024-yil 23-iyuldagi "Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq amalga oshirildi.

Istam IBROHIMOV («Xalq so'zi»).

Chiqindi - daromad manbai

Xo'jaobod tumanida chiqindi muammosining tizimli yechimini topish maqsadida investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Xitoyning "China CAMC Engineering Co., Ltd." kompaniyasi ishtirokidagi bu loyihaning umumiy qiymati 146 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Korxona 10 gektar yer maydonida barpo qilinmoqda va kelgusida qattiq maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

- Ushbu korxona kuniga 1500 tonna maishiy chiqindilarni qayta ishlash quvvatiga ega bo'ladi, - deydi viloyat hokimligi xodimi Rustamjon Eshonov. - Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 240 mln. kilovatt-soatni tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa nafaqat chiqindilarni samarali utilizatsiya qilish, balki hududning energetik barqarorligini ta'minlashga ham yo'l ochadi. Loyiha doirasida yuzga yaqin doimiy ish o'rnlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Mazkur investitsiya tashabbusi atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilar hajmini kamaytirish hamda "yashil" energetikani rivojlantirish borasida muhim qadam sifatida e'tiborga molik.

Saminjon HUSANOV («Xalq so'zi»).

Yangi ko'prik manzilni yaqinlashtirdi

Qashqadaryo viloyatida so'nggi sakkiz yil davomida faqat Davlat byudjeti va xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan 120 dan ortiq ko'priklar qurildi, eskilari ta'mirlandi. Natijada bir necha yuz minglab aholining mushkuli oson bo'ldi, qanchadan-qancha qishloqlar, mahallalar o'rtasidagi masofalar qisqardi.

Tegishli investitsiya dasturi asosida Shahrisabz tumanidan oqib o'tuvchi Tanhoz daryosi ustida 4 mlrd. 511 mln. so'm mablag' evaziga qurilib, foydalanishga topshirilgan 96 metr uzunlikdagi ko'prik ham hududdagi Navbahor, Istiqbol, Xontepa, Tanhoz va O'rtaqo'rg'on mahallalari aholisi uchun katta qulaylik yaratdi.

Shu bois zamonaviy ko'prikning foydalanishga topshirilishi hudud ahli uchun haqiqiy shodiyonaga aylanib ketdi.

- Avval ko'shni mahallalarga o'tib-qaytish, tuman markaziga borish uchun turli aylanma yo'llar orqali yurishga majbur bo'larlik, - deydi Navbahor mahallasida yashovchi Nodir Ashurov. - Ayniqsa, farzandlarimizning maktabga qatnashida xavfsizlik talablariga javob bermaydigan, qo'lbola usulda qurilgan ko'prikdan o'tishi biz uchun doimo xavotirli edi. Yangi ko'prik mushkullarimizni oson qilish bilan birga, ko'nglimizdagi xavotirni ham aritdi.

Jahongir BOYMURODOV («Xalq so'zi»).

TALAB QILISH SADAQA SO'RASH EMAS

Angor tumani Surxondaryo viloyatining markaziy qismida joylashgan. So'nggi yillarda tumanda ko'plab zamonaviy savdo inshootlari barpo etildi. Bu esa sotuvchi va xaridor uchun yanada qulay sharoit yaratdi. Ayniqsa, yagona brend ostida faoliyat yuritayotgan savdo markazlari soni ko'paydi. Shulardan biri - angorkliklar orasida mashhur bo'lib borayotgan "Vanora" savdo uyi.

Achchiq, ammo ochiq gap

Bu yerda oziq-ovqatdan tortib kiyim-kechak va uy-ro'zg'or buyumlarigacha - barcha mahsulotlarni topish mumkin. Narxlar ham nisbatan hamyonbop. Shu bois xaridorlar oqimi uzilmaydi.

Biz "Vanora"ga savdo-sotiq qizg'in pallada bordik. Kassa oldida navbat uzundan-uzun. Kimdir plastik kartada, kimdir naqd pulda hisob-kitob qilmoqda. Sotuvchilar xushmuomalalik bilan xizmat ko'rsatyapti. Navbat taxminan 15 - 20 daqiqadan so'ng bir xaridoroga yetdi. U plastik kartasi orqali to'lovni amalga oshirdi. Sotuvchi pul yechilganini bildirib, kartasini qaytardi. Biroq kassa apparatidan chiqqan mayda qog'oz parchasi - chek uning qo'lga berilmadi. Bir qarashda oddiy holat. Ammo shu kichik qog'oz parchasi ortida ulkan tizim - soliq nazorati, raqamli kuzatuv va iqtisodiy intizom turibdi.

Xaridor chek berilishini kutib

turdi. Ortida turganlar esa uni qistalang qila boshlashdi. U esa qimirlamay, kassa tomonga qarab turardi. Shunda sotuvchi chek chiqaradigan qurilma "olib ketilgani"ni bahona qildi.

Keyin esa zarda bilan: - Narsalarni arzonga sotsak, birovlar katta xaridni bajarib ham, chek so'ramaydi. Siz shu arzimagan pul uchun chek talab qilaysizmi? - dedi.

Bu gap taajjub uyg'otmay qolmadi. Xaridor esa chekni kutishda davom etdi. Orqada turganlardan biri kulimsirab: - 53 ming so'mlik savdo qilibdi-da, atigi 500 so'm keshbek chiqadi. O'sha 500 so'm o'rniga ming so'm berib yuboring, masala ham, - dedi.

Aksariyat xaridorlar bu taklifni ma'qullaganday bosh irg'adi. Shu payt do'kon egalaridan biri aralashdi. Xaridorning telefon raqamini olib, chekni elektron xabar shaklida yuborishini aytdi. Sirtidan qaraganda, masala

hal bo'lgandek tuyuldi. Navbat davom etdi, savdo yana qizg'in tus oldi. Ammo shu kabi ko'zga ko'rinmas holatlar jamiyatdagi katta muammolarning kichik ko'rinishi emasmi?

Prezidentimizning 2019-yil 6-sentabrdagi "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, 2022-yil 1-yanvardan savdo va xizmat ko'rsatish sohasida to'liq onlayn nazorat-kassa mashinalari joriy etildi. Mazkur tizim orqali naqd va naqdsiz hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlar soliq organlariga onlayn tarzda uzatiladi.

Qonunchilikka ko'ra, chek bermaslikka hyech qanday bahona bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, QR-kodli cheklarni maxsus soliq ilovasi orqali ro'yxatdan

o'tkazgan iste'molchilarga xarid summasining 1 foizi keshbek sifatida qaytariladi. Demak, bu tizim ham fuqaro, ham davlat manfaatlariga xizmat qiladi.

Chek - xaridor huquqining hujjatli kafolati. Mahsulot sifatsiz chiqsa yoki xizmat talabga javob bermasa, aynan chek fuqaroni himoya qiladi. Shu bilan birga, chek tadbirkorning faoliyati qonuniy ekanini tasdiqlaydi. Chek berilmasligi esa soliqdan qochish, byudjet tushumlarining kamayishi degani. Byudjetga tushmagan har bir so'm qurilmay qolgan maktab, ta'mirlanmagan shifoxona, yetishmay qolgan ijtimoiy xizmat, demakdir.

Eng achinarlisi, chek talab qilish ayrimlarga hanuz "ortiqcha qaysarlik" yoki "sadaqa so'rash"dek tuyuladi. Vaholanki, bu - qonun ustuvorligiga hurmat. Kassa oldidagi 500 so'mlik bahs ortida aslida katta masala - huquqiy ong va iqtisodiy madaniyat masalasi turibdi. Jamiyatda chek so'rash oddiy, tabiiy va madaniy odatga aylanmaguncha, "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurash to'liq samara bermaydi.

Farhod ESONOV («Xalq so'zi»).

Berlin shahrida «Asrlarni bog'lagan meros: o'zbek miniatyura san'ati» ko'rgazmasi tashkil etildi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulqilga qaytarilmaydi.	MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir A. Aliqulov. Musahhili S. Islomov.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.	
Gazeta tahririyati kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.	
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.	

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 06.35 Topshirildi - 07.10 1 2 3 4 5 6